

AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV INSTITUTI TUSHUNCHASI, O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.

S.S. Saydaliyev

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
2-bosqich talabasi.

E-mail: sardorbeksaydaliyev2@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14165366>

Annotatsiya. Maqolada jinoyat ishlarida aybiga iqrorlik instituti tushunchasi va uning kelib chiqishi, uning o‘ziga xos hususiyatlari, milliy qonunchilik tizimida o‘rni va quayliklari yoritib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: jinoyat, shaxsning huquq va erkinliklari, qonun hujjatlari, sud, insonparvarlik, jazo, aybga iqrorlik, ayblov xulosasi.

THE CONCEPT, FEATURES AND BENEFITS OF THE PLEA BARGAIN INSTITUTION.

Abstract. The article describes the concept of the institution of confession in criminal cases and its origin, its specific features, its place and convenience in the national legal system.

Key words: crime, rights and freedoms of a person, legal documents, court, humanitarianism, punishment, guilty plea, indictment.

ПОНЯТИЕ, ОСОБЕННОСТИ И ПРЕИМУЩЕСТВА ИНСТИТУТА ПРОЦЕССУАЛЬНОГО СОГЛАШЕНИЯ.

Аннотация. В статье раскрывается понятие института исповеди по уголовным делам, его происхождение, особенности, место и удобство в национальной правовой системе.

Ключевые слова: преступление, права и свободы человека, правовые документы, суд, гуманизм, наказание, признание вины, обвинительное заключение.

Ma’lumki, so‘ngi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuvi tamoyili qo’llanishini kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Xususan Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professor-o‘qituvchisi Sarvarbek Ibadullayevning fikiricha “O‘zbekistonda jinoyatga oid siyosat izchil liberallashmoqda, undan ko‘zlangan asosiq maqsad adolat va insonparvarlik prinsiplarini amalda ro‘yobga chiqarish, jazolashning repressiv vazifalarini qisqartirishdan iboratdir” deydi o‘zining maqolalaridan birida¹. 2020-yil 10-avgustdagи “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son farmonida mamlakatimizning jinoyat-huquq tizimida aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv institutini joriy qilish

¹ Ибадуллаев С. ЖИНОЯТ ҚОНУНИДА СУДЛАНГАНЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ ОҚИБАТЛАРИ //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 14-31

Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazga vazifa yuklatildi.

Aybga iqrorlik to‘g’risida kelishuv instituti o‘zi nima degan savol tug’iladi albatta.

Yuqorida keltirilgan farmonning ijrosi natijasida 2021-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g’risida”gi qonun qabul qilinishi asosida Jinoyat-protsessual kodeksi “Aybga iqrorlik to‘g’risidagi kelishuv” deb nomlangan yangi 62¹-bobga ega bo‘ldi. Jinoyat kodeksi 586¹-moddasi² bo‘yicha aybga iqrorlik to‘g’risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishida faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og’ir bo‘lmagan va og’ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir.

Xorijiy tajriba, xususan Amerika Qo‘shma Shtatlarida aybga iqrorlik to‘g’risida kelishuv instituti yana “Plea bargain” deb ham yuritiladi. **“A plea bargain, also known as “negotiating a plea,” is an agreement between the prosecution and the defendant where the defendant agrees to plead guilty to the charges against them”**³ ya’ni ayblanuvchi va prokuror o‘rtasidagi kelishuv bo‘lib, ayblanuvchi va sudlanuvchi o‘zlariga qo‘yilgan ayblovlarni tan olishga rozi bo‘lishadi. O‘zini ayblash evaziga sudlanuvchiga odatda ayblovlar sonini kamaytirish (agar sudlanuvchiga bir nechta ayblovlar yoki javobgarlik qo‘yilgan bo‘lsa), qamoq jazosi muddatini qisqartirish yoki og’irroq jazoni olib tashlash kabi yengilroq jinoiy ayblovlar taklif etiladi. kichikroq ayblov (masalan, birinchi darajali qotillik ayblovidan qotillik aybloving pastroq darajasiga tushirish). Ayblanuvchi ayblovning kamaytirilishini ololmasligi mumkin, ammo prokuror sudyadan yengilroq jazo tayinlashni taklif qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi aybga iqrorlik to‘g’risida kelishuv imzolanganidan keyin aybdorga nisbatan javobgarlik Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddalari bilan ayblanayotgan shaxsga shu moddalarining sanksiyasi yarimidan oshmasligi lozim etib belgilangan⁴. Misol uchun shaxs o‘ziga ishonib topshirilgan narsani rastrata yo‘li bilan ko‘p miqdorda talon-taroj qilsa unga Jinoyat kodeksi 167-moddasiga binoan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yillgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi lozim. Lekin Jinoyat-protsessual kodeksining 62¹-bobi amaliyatda yuqorida keltirilgan sanksiyalarini kamida yarimiga kamaytirish imkonini beradi.

Aybga iqrorlik to‘g’risida kelishuvni tuzish uchun o‘ziga yarasha talablari mavjud. Bularga gumanlanuvchi yoki ayblanuvchi o‘z harakatlarini mohiyatini, shuningdek o‘zi berayotgan iltimosnomaning oqibatlarini anglab yetgan bo‘lishi, iltimosnoma ixtiyoriy faqat himoyachi bilan maslahatlashgandan so‘ng va surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan gumanondor yoki aybdorga qo‘yilgan gumanoni yoxud ayblovni, shuningdek ish yuzasidan mavjud bo‘lsa dalillarni va

² <https://lex.uz/docs/111460#5305968> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

³ https://www.law.cornell.edu/wex/plea_bargain#:~:text=Primary%20tabs,to%20the%20charges%20against%20the~m

⁴ <https://lex.uz/acts/-111453> Jinoyat kodeksi 57²-moddasi

yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini inkor etmasa va uni bartaraf qilgan bo'lsa. Bu turdag'i iltimosnomani surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berilishi mumkin.

Iltimosnomada gumonlanuvchi, ayblanuvchi va himoyachisi va agar ishda qonuniy vakillari ishtirot etayotgan bo'lsa ularning ham imzosi qo'yilgan bo'lishi lozim. Iltimosnomada gumonni yoki ayblovvni tan olinayotganini va uni inkor etmasligi, jinoyatni tegov qilishda ko'maklashishini, jinoyat natijasida olingen mol-mulkni topilishi uchun qaysi harakatlarni amalgalashishini surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ish materiallari bilan birgalikda kelishuv tuzish uchun 24 soat ichida prokurorga yuboradi va prokuror iltimosnomani u kelib tushgan paytdan boshlab 72 soat ichida ko'rib chiqadi va yuqorida keltirilgan talablarga rioya etilganligini tekshiradi. Bundan tashqari prokuror kelishuvning asoslarini o'rganadi, kelishuv tuzish asoslarini tekshiradi, kelishuv predmeti bo'lgan harakatlarni ayblanuvchi yoki gumondor bajara olishini baholaydi va bu iltimosnomasi haqiqattan ham ixtiyoriy tuzilganini, hech qanday uchinchi shaxslar tomonidan tazyiq yoki boshqa turdag'i ta'sir o'tkazilmaganini baholaydi. Prokuror o'rganishlar natijasida iltimosnomani qanoatlantiradi yoki qanoatlantirmaydi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgandan keyin boshqa protsessual harakatlar talab qilinmasa prokuror ayblov xulosasini zudlik bilan sudga yuboradi. Agar qo'shimcha tergv yoki boshqa harakatlar talab qilinsa ish tergovchi yoki surishtiruvchiga ayblovnii tasdqlash uchun dalillarni to'playdi.

Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv instituti jinoyat ishlarini yuritishning soddalashtirilgan usuli sifatida qarash mumkin. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni ishlatish oqibatida jinoiy sheriklar haqida axborot olish, yashirin dalillarni aniqlash, yetkazilgan zararni qoplashga erishish mumkin.

Bundan tashqari bu kelishuv turli xil ovoragarchilikni oldini oladi va aybga yarasha javobgarlikka tez fursatlarda erishiladi va bu ehtiyyot chorasi sifatida saqlanayotgan va sudning majlislari va qarorlarnini kutib o'tirgan shaxlar uchun juda katta yengillik beradi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun vaqt va resurslarni tejalishi va o'ta murakkab jinoyatlarning tez, aniq va qonuniy aniqlanishiga erishiladi. Jabrlanuvchilar uchun ham bu kelishuv ahamiyatli bo'lishi mumkin chunki bu kelishuv ularga yetkazilgan zarani qoplanishiga olib keladi. Bundan tashqari javobgar bilan tez-tez uchrashish kabi psixologik jihatdan og'ir vaziyatdan xalos etadi.

Xulosa qilib shuni atish mumkinki, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv institutining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga joriy qilinishi inson huquqlarining himoyasini yangi bosqichga olib chiqadi.

REFERENCES

- Ибадуллаев С. ЖИНОЯТ ҚОНУНИДА СУДЛАНГАНЛИКНИНГ ХУҚУҚИЙ ОҚИБАТЛАРИ //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 14-31
- <https://lex.uz/docs/111460#5305968> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
- https://www.law.cornell.edu/wex/plea_bargain#:~:text=Primary%20tabs,to%20the%20changes%20against%20them.
- <https://lex.uz/acts/-111453> Jinoyat kodeksi 57²-moddasi.